

## MAKTABGACHA YOSHDAGI YOSH BOLALAR KOMPITENSIYALARI SHAKLANTIRISH YO'LLARI

*Denov tadbirkorlik pedagogika instituti  
1-bosqich talabalari  
G'afforova Dilnoza Bahrom qizi  
Tilovmurodova Orasta  
Tohirova Sadbarg*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bolaning rivojlanish sohalari ,kompitensiyalar ,metodik asoslari ,maktabgacha ta 'lim –tarbiya soxasiga to'xtalib o'tilgan .*

*Xamda bolaning kampitensiylarini rivojlantirish masalasi dolzarbliji borasidagi fikrlar keltirib o'tilgan.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются сферы развития ребенка ,компетенции ,методические основы ,сфера дошкольного воспитания . Также были высказаны мнения по актуальности вопроса развития компетенций ребенка.

**Annotation:** This article discusses the areas of child development , competencies , methodological foundations , and the sphere of preschool education . Opinions were also expressed on the relevance of the issue of developing the child's competencies. uzbek to ingliz

**Kalit So'zlar:** *Bola , ota-on, tarbiyachi pedagog, rivojlanish sohalari, kompitensiyalari, moniy rivojlanish vasog'lom turmush tarsi.*

### KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha talim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqozosiga aylandi .Maktabgacha ta'lim sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish ,bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish , qobilyatlarni aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondoshuv maqsadida ratsional va tizimli o'rgatishni targ'ib qiladi.

### MAKTABGACHA YOSHDAGI (6-7) YOSH BOLANING UMUMIY MUHIM KOMPITENSIYALARI.

Kommunaktiv kompitensiya

Muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalanish mahorati.

Ijtimoiy kompitensiya

Kottalar va tengdoshlar orasida hayotiy vaziyatlarda, ular bilan bo'lgan muloqotda Axloq qoidalari va meyorlari hisoblanadi.

O'yin kompitensiyasi

Bilim tajriba va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish .Bolaning o'quv jarayoni va uni Tashkillashtirish asosidir.

#### Bilish kompitensiyasi

Atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim ,ko'nikma , malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish ko'nikmasi .

Bu kompitensiyalarni qo'llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to'g'ri javob berishga yo'naltiriradi. Bolalarni so'z boyligini oshirishda ko'proq kitoblar o'qib berish shu borada bolalarga kitoblar sovg'a qilish , bolani har tamonlama rivojlantirish , aqliy jihatdan qo'llab quvatlashdan iborat .Maktabgacha ta'lim tizimi uzlusiz ta'limning birlamchi ,eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi .Olimlarning aytishicha inson o'z umri davomida oladigan axborot va malumotning 70- foizini 5 yoshgacha bo'lgan bog'cha davrida oladi.Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tartbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda,ularning fikrlash darajasi o'rtaida yer bilan osmoncha farq borligini

sezish qiyin emas deya takidlaydi "O'zbekiston respublikasi prizidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Darxaqiqat bugungi kunda o'zbekiston taraqiyotini taminlashi uchun ham

Jismoniy va manaviy sog'lom ,intelektual salohiyatli bo'lib yetishishi zarur.

Bugungi kunda bolaning rivojlanish sohalarini shakillantirishda 2020-

Yil 22-dekabrdagi qabul qilingan maktabgacha ta'lim va tarbiyani davlat ta'lim standartiga ko'ra ilmiy- uslubiy yondashish kerakligi aytib o'tiladi.

Bu standartga ko'ra bolalarning rivojlanish kompitensiyasiga ko'ra,

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakillanishi- yani

O'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish meyorlariga mos ravishda ko'rsatadigon faolligi , o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlarini boshqarilishi kiradi.

#### Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

Bazi bolalar o'zining , ichki muhitini rivojlantirish ko'zda tutiladi .Bolani har tomonlama tarbiyalash rivojlanishni taminlashda maktabgacha ta'lim tashkilotining otonalar

bilan o'zaro hamkorlikdagi ishlari muhim hisoblanadi.

-Ota -onalarning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi fikrlarini inobatga olish .

-Ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish ko'nikmasi.

-Ota -onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashib borishi.

-Ota -onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi fikrlarini tashabbuslarini qo'llab quvvatlash lozim .

Shuni aytish lozimki tarbiyachi rivojlanmasa,maktabgacha ta'lim rivojlanmaydi, tarbiyachining rivojlanishi esa tinimsiz izlanishi, harakatda bo'lishi, talim –tarbiyani uyg'unlashtirgan xolda yangiliklar yaratib berishi kerak.

### **XULOSA**

Bolaning rivojlanish sohalari kompitensiyalarini shakillantirish masalasi hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi . Xullas bolaning rivojlanishi ilmiy nuqtayi –nazari ,uning ilmiy –uslubiy jihatlarinio'rganish va bu borada yangiliklarni joriy qilish davr talabi deb targ'ib qilinadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1."ILK qadam "davlat o'quv dasturi.2019 –yil 29- dekabr.
- 2.O'zbekiston prizidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017 –yil 20 –noyabrdagi nutqidan..
- 3."bolangiz mакtabga tayyormi"O'zbekiston xalq talimi vazirligi Respublika talim markazi.
- 4.802 qaror davlat talablari Fotima Qodirova.